MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR (1991-2016-yillar misolida)

Sh.U.Ne’matov
Sarbon Universiteti dotsenti v.b.
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilgan dastlabki islohotlar va ularning bosqichlari, sohaga oid bo‘lgan normativ-huquqiy xujjatlarning qabul qilinishi va ularning ijrosi, maktabgacha ta’lim muassasalarining faoliyati va ularning statistikasi hamda ularning moddiy-texnik holati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, ta’lim dasturi, tajriba-sinov, moliyaviy resurs, tayyorlov guruhlari, pedagogik yangilik, ta’lim muassasalari.

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab jamiyat hayotining barcha sohalari singari uzluksiz ta’lim tizimida ham sezilarli islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “….Biz ajdodlarimiz yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz. Bukilmas iroda, fidoyilik va

jasorat na’munasini amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishiga bag‘ishlangan ustoz va murabbiylarimiz, zamondoshlarimiz bilan cheksiz faxrlanamiz”[1] degan ta’kidida soha vakillariga bo‘lgan munosabatini ko‘rish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab maktabgacha ta’lim tizimiga bolalarni maktab ta’limiga ma’naviy, jismoniy jihatdan tayyorlab berish vazifasi yuklatilgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1991-yilda 9834 ta maktabgacha bolalar muassasasida 1339,5 ming bola, jumladan 173 ta bolalar yaslisida 1,5-3 yoshgacha bo‘lgan 14,5 ming bola qamrab olinib, mazkur yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olish ko‘rsatkichi 35,1 foizni tashkil etdi[2]. Mazkur davrda maktabgacha ta’limning yasli, bog‘cha, yasli-bog‘cha, sog‘lomlashtirish bog‘chalari, nuqsonli bolalar bog‘chalari hamda mavsumiy bog‘chalar kabi turlari faoliyat ko‘rsatdi. Shuningdek, tizimni rivojlantirish maqsadida “Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch dasturi” “Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasiga qo‘yilgan davlat talablari” kabi loyihalar ishlab chiqildi[3]. Ushbu dastur va loyihalar bo‘yicha har yili bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida tashkil etilgan markazlarda, bolalar bog‘chalarining tayyorlov guruhlarida, shanba-yakshanba maktablarida, mahalla guzarlaridagi maxsus kurslarda 200-250 ming bola maktabga tayyorlab berildi[4].

1997-yilda xonadonlardagi bolalar bog‘chalari va “bolalar bog‘chasi-maktab” tizimi rivojlana boshladi, shuningdek, bolalarga chet tillari, kompyuter texnologiyalari, tasviriy san’at, musiqa, xoreografiya kabi darslarni olib boruvchi 800 dan ortiq guruh tashkil etildi[5]. Ushbu guruhlar uchun 146 ta komplektdagi zamonaviy kompyuterlar o‘rnatildi. Mazkur pedagogik yangiliklarni amalga oshirish maqsadida respublika bo‘yicha tajriba-sinov tariqasida 216 ta bog‘cha-maktab komplekslari tashkil etilib, ularda 11938 ta bolalar tahsil oldi[6]. Shuningdek, bog‘cha tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Sog‘lomjon-polvonjon” sport musobaqasi, “Olam kichkintoylar nigohida” tasviriy san’at ko‘rik-tanlovi, “Olam qo‘shiqqa to‘lsin” qo‘shiq festivallari 4 bosqichda o‘tkazilib borildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 24-iyundagi “Davlatga qarashli bo‘lmagan maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini tashkil etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 313-sonli qarori[7] asosida respublika bolalar bog‘chalarining xususiylashtirilgan shakli barpo qilina boshlandi. Lekin, xususiylashtirish jarayonlari kutilganidek natija bermadi. 2005-2006 yilga kelganda, maktabgacha ta’lim muassasalari va ularda tarbiyalanayotgan bolalar soni 1991-yilga qaraganda keskin pasayib ketdi. Bunga bir nechta ob’ektiv va sub’ektiv sabablar mavjud edi. Jumladan, bolalar kasalliklari va yuqumli kasalliklarning ko‘payishi natijasida bolalar yaslilarida 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar kamaya boshladi. Shuningdek, bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalash uchun imtiyozlarning qisqartirilishi va bolalar uchun to‘lanadigan to‘lov miqdorining oshishi asosiy sabablarda biri edi. Masalan, Xalq ta’limi vazirligi respublikaning 6 ta hududida o‘tkazilgan ijtimoiy tadqiqotlarga ko‘ra, aholining 86,4 foizi maktabgacha ta’limdan manfaatdor ekanligini ko‘rsatdi, lekin moliyaviy sabablar tufayli aholining 74,4 foizi maktabgacha ta’lim muassasalari xizmatidan foydalana olmadi, ayniqsa, mazkur ko‘rsatkich Qashqadaryo (11,7 foiz), Surxondaryo (12,4 foiz), Xorazm (16,1 foiz) viloyatlarida juda pastligicha qoldi. Maktabgacha ta’lim muassasalarining sport anjomlari va

[1] Mirziyoyev.Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”, T.: “O‘zbekiston”, 2016.-5 b.
[2] Ўзбекистонда таълим: талаб ва таклиф мутаносиблиги. UNDP – Тошкент-2007/2008. – Б. 78.
[3] Йўлдошев Ж. Таълим янгиланиш йўлида.-Тошкент: Ўқитувчи, 2000.-Б.14.
[4] Ne’matov Sh.U. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimining takomillashtirilishi 2017–2021-yillar). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. -Toshkent, 2025., 15-b.
[5] Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 29.08.1997. Hujjat kuchini yo‘qotgan 24.09.2020 https://lex.uz/docs/-48401 (Murojaat qilingan sana:23-iyul 2023-yil).
[6] Ne’matov Sh.U. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimining takomillashtirilishi 2017–2021-yillar). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. -Toshkent, 2025., 15-b.
[7] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 24-iyundagi “Davlatga qarashli bo‘lmagan maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog’ini tashkil etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 313-sonli Qarori. https://lex.uz/ru/docs/-306724?ONDATE=24.06.1999 (Murojaat qilingan sana: 4-dekabr 2024-yil).

inventarlari bilan ta’minlanish darajasi 41 foiz, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘tkaziladigan maydonchalar 78 foiz, jismoniy tarbiya zallari 20,4 foiz muassasada mavjud edi. Qishloq joylarida va chekka hududlardagi bolalar bog‘chalarida tarbiyalash uchun ajratilayotgan moliyaviy resurslarning yetishmasligi sabab bo‘ldi[1].

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, respublika bo‘yicha 1-6 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olish 1991-yildagi 35,1 foizdan 2016-yilga kelib 17,3 foizga tushib qoldi. Bu ko‘rsatkichlar sohada 2017-yildan boshlab kechiktirib bo‘lmas islohotlarni amalga oshirishga turtki bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”, T.: “O‘zbekiston”, 2016.-5 b.

2. Ўзбекистонда таълим: талаб ва таклиф мутаносиблиги. UNDP – Тошкент-2007/2008. – Б. 78.

3. Йўлдошев Ж. Таълим янгиланиш йўлида.-Тошкент: Ўқитувчи, 2000.-Б.14.

4. Ne’matov Sh.U. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimining takomillashtirilishi 2017–2021-yillar). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. -Toshkent, 2025., 15-b.

5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 29.08.1997. Hujjat kuchini yo‘qotgan 24.09.2020 https://lex.uz/docs/-48401 (Murojaat qilingan sana:23-iyul 2023-yil).

6. Ne’matov Sh.U. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimining takomillashtirilishi 2017–2021-yillar). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. -Toshkent, 2025., 15-b.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 24-iyundagi “Davlatga qarashli bo‘lmagan maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini tashkil etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 313-sonli Qarori. https://lex.uz/ru/docs/-306724?ONDATE=24.06.1999 (Murojaat qilingan sana: 4-dekabr 2024-yil).